

**TURKIC THINKERS ON THE THEORY OF INTERNATIONAL
RELATIONS: A COMPARATIVE DISCUSSION OF ALISHER
NAVOI'S POLITICAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS**

Kukiboyev Shohjahon Olimjon o'g'li

International Relations faculty undergraduate student at
University of World Economy and Diplomacy

Abstract: Scholars from the West, in the vein of Immanuel Kant, have offered various perspectives on the ways to achieve "Perpetual Peace." When studying political philosophy and international relations theory, their ideas are most frequently referenced. This article, however, seeks to present the issue from an Eastern perspective by demonstrating that profound discussions on this subject also exist within the East, specifically in the works of the Turkic thinker Alisher Navoi.

Keywords: "Perpetual Peace", the West, the East, "Lison ut-Tayr" (The Language of the Birds), "Khamsa", absolute ruler, order, solidarity, awareness.

**TURKIY MUTAFAKKIRLAR XALQARO MUNOSABATLAR
NAZARIYASI BORASIDA: ALISHER NAVOIYNING SIYOSIY-FALSAFIY
QARASHLARINING QIYOSIY MUHOKAMASI**

Kukiboyev Shohjahon Olimjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti bakalavr talabasi

Annotatsiya: G'arb olimlari, Immanuel Kant qabilida aytganda, "Perpetual Peace" ("Bardavom tinchlik")ga erishish yo'llari borasida turlicha fikrlar berishgan. Siyosiy falsafa va xalqaro munosabatlar nazariyasini o'rganayotganda ko'pincha aynan ularning g'oyalariga murojaat qilinadi. Mazkur maqola esa, Sharqda, xususan, turkiy mutafakkir Alisher Navoiy ijod namunalarida ham bu mavzuda chuqur munozaralar mavjudligini dalillab, masalani Sharqiy nazdda ochib berishga urinadi.

Kalit soʻzlar: “Bardavom tinchlik”, Gʻarb, Sharq, “Lison ut-Tayr”, “Xamsa”, yakka hukmron, tartib, birdamlik, ogohlik.

Kirish. Eduard Said oʻzining 1978-yilda nashr etilgan “Orientalism” asarida Gʻarb olimlari Sharq madaniyatlari, adabiyoti, tarixi va sanʼatini nafaol, mutassil rivojlanishga moyil emas, irratsional sifatida taʼriflashgani haqida daʼvoni olgʻa surgan. Uning fikricha, mazkur olimlar turli ilmiy muhokamalarda Sharq (xossatan, Osiyo va Yaqin Sharq) olimlarining fikrlarini adolatsiz baholashgan, ularning kashfiyotlarini eʼtirof etishmagan, inobatga olishmagan va, buning ustiga, Sharqda bunday yutuqlar mavjud emasligiga ham yolgʻon ishoralar qilishgan. Eduard Saidning taʼkidlashicha, oqibatda, ilm-fanda Gʻarb dominantligi vujudga kelib, sharqiy dunyoqarashlar keskin chegaralab qoʻyilgan. Xususan, xalqaro munosabatlarning epistemik asoslari bugungi kunda asosan Gʻarb olimlarining fikr-mulohazalaridan tashkil topgan. “Qanday qilib dunyoda uzoq muddatli tinchlik oʻrnatsa boʻladi?” kabi ilm-fanning mazkur sohasidagi markaziy savollar muhokamasida ham, koʻpincha Gʻarb olimlarining gʻoyalariга murojaat qilinadi. Natijada, Sharq olimlari bu borasida shakllantirgan chuqur gʻoyalari ochiq masala sifatida qolib ketadi. Ushbu maqola mazkur masalani tahlil qilishga qaratilgan.

Butun dunyoda davomiy tinchlik oʻrnatish imkonli-imkonsizligi, ijobiy yoʻldan yursak, unga qanday erishilishi borasida muhokamalarda eng nufuzli ismlardan biri bu – Immanuel Kantdir. Kant “Perpetual Peace” (“Bardavom tinchlik”) atamasini fanga kiritgan olimdir. Koʻplab Gʻarb siyosiy falsafa vakillari “Bardavom tinchlik”ka yetishish uchun oʻz takliflarini berishgan – shu jumladan, Kantning oʻzi ham. Oʻrta Osiyo mintaqasi madaniyatlari, turkiy tillar (xususan, “chigʻatoy tili” yoxud “eski oʻzbek tili”) rivojida yuqori ahamiyatga ega shoir, mutafakkir va oʻz davrining faol siyosatchisi boʻlmish Alisher Navoiy ham Kantdan qariyb 300 yil burun bu mavzuni bevosita va bilvosita muhokama qilgan. Oʻzining “Lison ut-tayr” yoki “Xamsa” asarining ilk dostoni boʻlmish “Hayrat ul-abror” kabi asarlarida Navoiy baʼzan

to'g'ridan-to'g'ri, ba'zan majoz orqali mamlakatlar aro osoyishtalik uchun chuqur andozalar ishlab chiqqan. Ushbu maqola yuqoridagi andozalarni "bardavom 'ogoh' tinchlik" deya nomlab, Navoiyning fikrlariga yangicha talqin taqdim etadi.

G'arb olimlarining fikrlari. Dastavval, mavzuga o'sha mashhur Yevropa-Shimoliy Amerika olimlari nazdidan boqib ko'rsak – xususan "Bardavom tinchlik" tushunchasiga birichliardan bo'lib tizimli yondashgan nemis faylasufi Immanuel Kantga murojaat qilamiz. Immanuel Kant insonlar o'z manfaatlarini yuqori qo'yishlariga; davlatlar esa (bu haqida ochiqdan-ochiq aytadimi, yo'qmi) muttasil tirik qolish, kengayish, kuchayish va yetakchilikni qo'lga kiritishga intilishlariga; nizo esa har jabhada ro'y berishi mumkinligiga ishongan va olamning bu tartibotini tan olgan. Uning o'zi ham "Perpetual Peace", ya'ni "Bardavom tinchlik" idealistik ekanligini e'tirof etgan. Shunga qaramay, uning fikricha, agar muayyan talablar bajarilsa "Bardavom Tinchlikka" asta-sekin yaqinlashib borish mumkindir. Masalan, davlatlar "Respublikaviy konstitutsiya", ya'ni hokimiyat bir nechta bir-biriga bog'liq oliy organlarga bo'lingan, adolat va qonun ustuvor bo'lgan, va eng yuqori hokimiyatda oddir fuqarolarning fikri namoyish ("representation") etilgan siyosiy tuzumga ega bo'lishi muhimdir. Negaki, oddiy fuqarolar urush xarajatlari ular to'laydigan soliqlardan kelishini, urush ularning kundalik hayotida nihoyatda sezilarli muammolar chiqarishi anglashadi, ularning fikri oliy hokimiyatda inobatga olinsa, ko'plab urushlarning oldi olinadi. Kant, shuningdek, mamlakatlar orasida sirli aloqalar va yashirin fitnalar tuzilmasligi; davlatlar qarz evaziga harbiy amaliyotlar boshlamasligi; boshqa davlatlarning suverenitetini hurmat qilish; harbiy to'qnashuv yuzsa bersa ham, muayyan axloqiy qoidalar asosida urush olib borish kabi normalarni o'rnatish markaziy rol o'ynashiga ishongan. Bu kabi normalar ustuvorligi o'rnatilsa, alaloqibat, davlatlarning doimiy hujumkor lashkarlari tarqab ketishi kerakligini ta'kidlagan. Bu jarayonni amalga oshirishga butun dunyo boshqaruvchi hukmron davlat emas, "qonunan teng

mamlakatlardan tashkil topgan [kon]federatsiya” samarali va haqiqatga yaqinligi aytib o‘tiladi. Negaki, yakka hukmron davlat bora-bora faqat o‘z manfaatini ko‘zlovchi “global tyranny” “butunjahon zug‘mi”ga aylanishi ehtimoli kattadir. Kant mamlakatlararo [kon]federatsiya boshqarishni ko‘zlamasligiga, balki eng muhim maqsadi bu urush va nizolarni oldini olish bo‘lishiga urg‘u bergan.

Biroq u bilan hamfikir bo‘lmagan olimlar ham talaygina. Masalan, Tomas Hobbs “yakka butunjahon davlati”ga olib boruvchi g‘oyalarida mamlakat ichidagi qonun ishlashining sababi sifatida bu hokimiyat legitim kuch ishlatish mexanizmlari ustidan monopoliya o‘rnata olganini ko‘rsatadi. Hobbs xalqaro munosabatlarda ham, toki tinchlik o‘rnata oladigan yuqori qudrat mavjud emas ekan, “bardavom tinchlik” ro‘yobga chiqmasligiga shama qiladi.

Xuddi shunday, Hans Morgentau ham modomiki xalqaro huquqni majburan ijro etuvchi hokimiyat mavjud emas ekan, xalqaro huquq kuchsiz bo‘lishini ta’kidlagan. Morgentau markazashgan kuch ishlatuvchi global hokimiyatgina urushni oldini olishini, davlatlar esa zinhor bunday hokimiyat vujudga kelishiga rozi bo‘lmasligiga ishongan.

Norman Angell bo‘lsa, dunyoga “bardavom tinchlik”ni [kon]federatsiya emas, balki iqtisodiyot olim kelishiga ishongan. Angell urush iqtisodiy jihatdan mantiqsiz ekanligini, u savdo yo‘llari va tovar almashinuviga to‘sqinlik qilish orqali davlatlarni kambag‘allashtirishini ta’kidlagan. U davlatlar urush va yangi yerlarni zabt etish ularga foydadan ko‘ra ko‘proq zarar keltirishini fahmlagan onidayoq dunyoga o‘z-o‘zidan “bardavom tinchlik” kelishiga ishongan. Garchand, shu kunga qadar, uning da’vosi tarixda o‘ziga dalil topmadi.

Kantning fikrga keskin tanqid bilan yondashuvlar nihoyatda ko‘p bo‘lishiga qaramay, siyosiy falsafa hamda xalqaro munosabatlar nazariyasida hanuz uning fikrlari kuchli ahamiyatga ega. Negaki, u utopik tasavvur uchun, yo aqlga sig‘maydigan xayoliy bir olam uchun kurashmagan, u odamlar tabiati noqis bo‘lgani holda ham, davlatlar real

voqelikka moslashgan “bardavom tinchlik” sari siljib borish imkonli ekanligini falsafiy tarzda ochib bergan. Lekin, nahotki hech kim undan avval o’sha g’oyalarni, o’sha andozalarni olg’a surmagan bo’lsa? Masalan, Alisher Navoiy.

Navoiyning fikrlari. Alisher Navoiy ijodi Islomiy axloq, ilm-ma’rifat, mo’minga xos fazilatsa, Alloh vasli, roziligini izlashni maqsad qilish kabi yuksak ma’naviy g’oyalarga asoslangan. Bu g’oyalar faqatgina qalb, ong, hissiyotlar orqali ruhiy komillikka erishish, ilohiy munosabatlar madhini emas, balki chin hayotga, amalga ko’chishi kerak bo’lgan ko’rsatmalarini ham o’z ichiga oladi. Uning asarlarining chuqurligi ham shundaki, ulardan Yaratgan ishqiga muyassar bo’lmoqchi bo’lgan ma’naviy-ruhiy nasihatga ehtiyoj sezayotganlar ham, kundalik hayot, jamiyat va hatto siyosat bobida dunyoviy masalalarda maslahat izlaganlar ham foyda topa oladi.

Jumladan, Mir Alisherning “Lison ut-Tayr” asari fors shoiri Farididdin Attorning “Mantiq ut-Tayr” asariga javob tariqasida yozilgan bo’lib, kitob birlamchi g’oyasi tasavvufiy-falsafiydir. Voqealarda hudhud boshchiligidagi To’ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kabutar, Kabki dariy (Tog’ kakligi), Tazarv, Qarchig’ay, Shunqor, Burgut, Kuf (Boyo’g’li), Humoy, O’rdak, Tovuq (Xo’roz) kabi qushlar adolatli podsho – Semurg’ni izlab, Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig’no, Tavhid, Hayrat va Faqru fano kabi yetti vodiyni kechib o’tishadi. Bu yo’lda Haqning vasliga chindan talabgor bo’lish, qalbni ilohiy ishq bilangina to’ldirish, Haq to’g’risidagi ilm sarhadsiz ekanligini anglash, o’zining ehtiyojmand ekanligini tushunish, borliq ruhiyati fahm etish, Haqning ulug’vorligi mahliyo bo’lib qolish va abadiylikka erishish uchun fano bo’lish kabi ibratlarning mag’zini chaqishadi. Nihoyat, manzilga yetib borgach faqat o’ttiz qush qolganligi ma’lum bo’ladi. O’ttiz qushforschada “Si murg’” degani. Bu qushlar qayerga boqmasinlar, u yerda o’zlarining akslarini ko’radilar:

“Ko’rdilar o’zni qayonkim tushti ko’z,

Olloh-Olloh ne ajoyibdur bu so’z.

*Kim qilib Simurg 'ni o 'ttiz qush havas,
O 'zlarin ko 'rdilar ul Simurg ' bas."*

Doston so 'ngida qushlar har birlarida Simurg 'ning bir qismi borligini kashf etadilar. Tasavvufiy-falsafiy jihatdan, bu doston Yaratgan har bir insonga o 'z qudrati, ulug 'vorligidan bir zarrachani joylagani va insonlar o 'sha zarrachani kashf etish uchun mashaqqatli yo 'lni bosib kerakligini aytadi. Shunga qaramay, doston yozilgan davrdagi Xuroson va Movarounnahr zaminlaridagi siyosiy vaziyatga e 'tibor qaratsak, asarda o 'sha zamon tartibotini siyosiy-falsafiy muhokamasini ham payqash mumkin.

Asar 1498-1499 yillarda, shoirning so 'ngi yillarida yozilgan. Bu paytlarda sobiq Amir Temur saltanati Sulton Husayn Boyqaro boshchiligidagi Xuroson va Xorazm, Sulton Ali Mirzo hukmi ostidagi beqaror Markaziy Movarounnahr, Sulton Bobur Mirzo va Jahongir Mirzo orasida talash Farg 'ona, Sulton Mahmudxon hokimiyati ostida Toshkent kabi mulklarga bo 'linib ketgandi. U yoki bu darajada mustaqillika ega bu mamlakatlar bir-biri bilan tinimsiz kurashar edi. Mulklar aro notinchlik, beqarorlik, o 'zboshimchalik avj olib, xalq xarob ahvolga tushib qolgan; savdo-sotiq, ilm-fan, dehqonchilik-u chorvachilik kabi davlat tirikligining hayotiy ustunlar rivojlanishdan keskin to 'xtab qolgan edi. O 'rta Osiyodagi Temuriylar ixtiyoridagi barcha qarluq-turkiy va o 'g 'uz-turkiy ellardan tashkil topgan bu mulklar tanazzulga tomon ketarkan, shimoldagi qipchoq-turkiylarning lashkari bu sulola hukmronligini uzil-kesil yakunlashga shaylanardi.

"Lison ut-Tayr" asari bu ma 'lumotlarni nazarda tutib tahlil qilinsa, doston ichidan yuksak siyosiy-falsafiy ko 'rsatmani ham topish mumkin. O 'sha davr miqyosida vaziyatni o 'rgansak, barcha temuriy shahzodalar qolganlar ustidan hukmron bo 'lishni, sobiq Temur saltanatini aynan o 'z hukmi ostida birlashtirishni maqsad qilib, tinimsiz bir-biri bilan urushar edi. Bunday talqinda, asar ilohiy "qo 'l" mo 'jizaviy tarzda mamlakatlar o 'rtasidagi osoyishtalikni to 'g 'irlab qo 'yishi ham, yagona davlat yo yakka

sulton boshqalar ustidan hukmron bo‘lib tinchlik o‘rnatishi ham shart emasligini ko‘rish mumkin. Go‘yo Navoiy hech bir mulk sardori barcha muklar ustidan hukmronlik da’vosidan voz kechmayotganini ko‘rib, bu esa barchanin nihoyatda og‘ir ahvolga solib qo‘yganini tushunib, tinchlik yakka hukmron bilan emas, bir vaqtda mavjud hamjihatlikdagi bir necha taxtdorlarning ittifoqi bilan kelishiga ishora qilgandek. Agar g‘oyani yanada davom ettirsak, Mir Alisher samovotdan mo‘jiza kelib ahvol tuzatib qo‘yishi shart emasligini tushuntirishga urinayotganini ham payqash mumkin. Negaki Yaratgan shundoq ham o‘zining behad karamidan, cheki yo‘q fazilatlaridan bir qismni har bir insonning ichiga ham joylab qo‘ygan. Bu nurni kashf etish uchun inson asarda “Hudhud” ramzi sifatida ochib berilgan komil inson namunasi – Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam, shuningdek, taqvoli avliyolarning o‘gitlariga amal qilish, ular ko‘rsatgan yo‘ldan yurib, o‘z-o‘zidagi tabiatiga bitilgan yaxshilikni anglab yetishi lozim. “Lison ut-Tayr”ni turli mamlakat sardorlari aynan shu ruhiy isloh va, so‘ngra, birdamlik orqali “bardavom tinchlik”ka erishishi mumkinligiga ishora sifatida ko‘rish mumkin. Asarni boshiga yuzlanib, qushlar Semurg‘ni izlash chiqishlaridan asl maqsad, eng birlamchi sabab bu bir kuni barcha qushlar majlis qurmoq uchun yig‘ilib, Lekin majlisda o‘rin talashib, janjallashib qolganlari, keyin esa agar bir adolatli podsho bo‘lganda, bahsga hojat qolmagan bo‘lardi, deb o‘ylaganlari ekanini eslash bu nazariya haqiqatga mosligiga dalil sifatida xizmat qiladi. Mulklar aro tartib, osoyishtalik, tinchlik qaytishi va tinimsiz urushlar to‘xtashi uchun qushlar, yoxud mazkur talqinda – sultonlar, komil insonga ergashib insoniy ezgu xislatlarni o‘zda rivojlantirishi va, eng muhimi, yakka sulton ostida emas, balki o‘zaro birlashishi zarurligini anglaymiz.

Sulton uchun kerakli mazkur fazilatlar bayoni xususiga kelsak, Navoiyning ijod mahsullari orasi bu masalaga ham alohida to‘xtalib o‘tilganini va noaniqlikka o‘rin qolmaganini ta’kidlash joiz. Xossatan, Navoiyning “Xamsa” asaridagi ilk doston “Hayrat ul-abror”da “Salotin bobida” deb ataluvchi uchinchi maqolar batamom shu

mavzuga qaratilgan. Navoiy davlat yetakchisi bo‘lish bu ilohiy ne‘mat ekanligini aytib o‘tadi:

*“Ey falak avjidan o‘tub rif’ating.
Oyu quyoshdin cholinib navbating.
Taxting o‘lub davlati jovidi mulk,
Soyai chatring aro xurshedi mulk.
Toj boshingdin bo‘lubon sarbaland,
Taxt ayog‘ingdin o‘lub arjmand.”*

Bundan maqsad mulk hukmdorligi vazifasini olgan kishi bu ne‘matni qadrlashi, uni oqilona ishlatishi va siyosatni vijdon va donolik bilan yurgazish lozimligini tushuntirish:

*“Bildurub elga haq-u barhaqlig‘in,
Anglatibon qodiri mutlaqlig‘in.
Lek bu iqbolning o‘trusida,
Bo‘yla biyik martaba qarshusida,
Amr qilibdur necha xizmat sanga,
Ro‘zi etibdur necha san‘at sanga:
Bil - aning ne‘matig‘a shukr erur,
Kimsaki, shukr aylasa ko‘prak berur.”*

Shoir tojdorni bog‘bonga, saltanatni esa boqqa qiyoslash singari ramzlardan foydalanib, bog‘bon o‘z gulshani haqida qayg‘urishi, uni parvarish etishi, “gul”lariga zinhor zulm qilmasligi, ishkilik, aysh-u ishrat kabi illatlarga berilib, gulzorini unutib qo‘ymasligi, doimo hushyor bo‘lishi lozimligiga alohida urg‘u beradi:

*“Bo‘ldi raiyat gala-yu sen shubon,
Ul shajari musmir-u sen bog‘bon.
Qo‘yni shubon asramasa oyu yil,
Och bo‘rilar to‘masidur bori, bil.
Boqmasa dehqon chamanin tun-u kun,
Naxli tarin angla qurug‘on o‘tun.
Bo‘rini dog‘i galadin dur qil,
Suv beribon bog‘ni ma‘mur qil,
G‘am esang ul gala manofi‘ berur,*

Bog‘ gul-u meva-yi nofi’ berur.”

Maqolat ko‘pdan ko‘p shu kabi maslahatlar, tavsiyalar, ibratlar bilan to‘la. Keyinida taqdim etilgan “Shohi G‘oziy Husayn Boyqaro haqida hikoya” ham namuna sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “Xamsa”ning navbatdagi dostoni – “Farhod va Shirin”dagi Navoiyning mashhur ikkiligini eslab o‘tmaslikning iloji yo‘q:

“Erursen shoh – agar ogohsen sen,

Agar ogohsen sen – shohsen sen.”

Bu bilan Navoiy shohlar yoxud mamlakat yetakchilari yurt ichida farovonlik va taraqqiyotni, xalq orasida osoyishtalik, ma‘rifat va to‘kin-sochinlikni, va davlatlaro o‘sha keyinchalik Immanuel Kant “Perpetual Peace” (“Bardavom tinchlik”) deb atagan barqarorlikni ta‘minlashi uchun zaruriy fazilat bu ogohlik ekanini aytmoqchi. Yurtboshi ogohlighi o‘z xalqi ahvolidan ogohlik, davlatining kuch-qudrati-yu rivojlantirishga muhtoj sohalaridan ogohlik, xalqaro maydondagi kayfiyatdan ogohlilarda namoyon bo‘ladi. Fozil hukmdorlar ogoh bo‘lsalar, xalqaro hamjamiyatdagi tartibni buzishga harakat boshlayotgan birini darrov payqaydilar. Shunda ular “kim boshliq bo‘ladi” deb talashib o‘tirmay, darhol bir kengashga birlashib, ehtimoliy urushni oldini oladilar. Navoiy tinchlik aynan shu tariqa bardavom bo‘lishiga ishongan deyish mumkin. Maqola shu tufayli “Bardavom ‘ogoh’ tinchlik” tushunchasiga urg‘u berdi.

Xulosa. Sharq olimlari, xususan, bizning alloma ajdodlarimiz orasidan davlatshunoslik, siyosatshunoslik, siyosiy falsafa-yu xalqaro munosabatlari nazariyasini o‘rgangan, chuqur tahlillar orqali puxta andozalar, yechimlar taklif qilganlar yo‘qligiga ishonish mutlaqo xatodir. Afususki, asrlar davomida bunday ulug‘ ajdodlarimizning qarashlari, ilmiy-nazariy meroslari qaysidir ma‘noda qarovsiz qoldi. G‘arb olimlarining qarashlari nisbatan tizimliroqdek tuyilishining sababi esa, ular bir-birining g‘oyalarini tinimsiz davom ettirganidadir. Bu faqata ijobiy mazmunda emas:

G‘arb olimlari bir-birining ijod namunalari, qarashlarini chuqur o‘rganib, unga nisbatan o‘z fikrlarini rivojlantirishgan, jild-jild kitoblarni shunchaki boshqa bir olim qalamining tanqidiga bag‘ishlashgan. Yoki, aksincha, agar hamfikrlik payqashsa, uni yanada kengaytirib, oqsoqlaydigan jihatlarini isloh qilishgan. Shu orqali G‘arbda epistem tizimli holda shakllangan.

Biz ham bu an’anani o‘z ajdodlarimizning ijodi mahsullariga qo‘llashimiz darkor. Bizning nazdimizda, bu – sog‘lom ilmiy faoliyat. Buni buyuk ustozlarning ijodigaaa hurmatsizlik sifatida ko‘rish yaramaydi. Zotan, Alisher Navoiyning o‘zi ham o‘zning eng mashhur asarlaridan hisoblangan, yuqorida aynan ta’kidlab o‘tilgan kitoblari – “Lison ut-Tayr” va “Xamsa”ni Farididdin Attor, Nizomiy-Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Xusrav Dehlaviy kabi zamonasining o‘tkir mutafakkirlari yozgan asarlarga goh javob, goh davom sifatida bitgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Angell, N. (1910). *The great illusion: A study of the relation of military power to national advantage*. London, UK: William Heinemann.
2. Hobbes, T. (1651/1996). *Leviathan* (R. Tuck, Ed.). Cambridge, UK: Cambridge University Press.
3. Kant, I. (1795/1991). *Perpetual peace: A philosophical sketch*. In H. S. Reiss (Ed.), *Kant: Political writings* (2nd ed., pp. 93–130). Cambridge, UK: Cambridge University Press.
4. Morgenthau, H. J. (1948). *Politics among nations: The struggle for power and peace*. New York, NY: Alfred A. Knopf.
5. Navoiy, A. (2009). *Hayrat ul-abror*. Toshkent, O‘zbekiston: Yangi asr avlodi.
6. Navoiy, A. (1991). *Lison ut-tayr*. Toshkent, O‘zbekiston: Adabiyot va san’at.
7. Said, E. W. (1978). *Orientalism*. New York, NY: Pantheon Books.
8. Said, E. W. (1993). *Culture and imperialism*. New York, NY: Alfred A. Knopf.